

Sogʻlom Turmush Tarzini Shakllantirishda Mahalla Va Oliy Oʻquv Yurti Hamkorligi

Aʼzamxonov A. A., Nabiyeu U. N., Nazarkulova Sh. U
Guliston davlat universiteti, Guliston, Oʻzbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada barkamol avlodning sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda mahalla va oliy oʻquv yurti hamkorligi haqida maʼlumotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: davlat, taraqqiyot, jamiyat, inson va yoshlar, sogʻlom tafakkur.

Kirish. Har qanday davlatning rivojlanib, taraqqiyot sari odimlab borishi, jahon hamjamiyatiga yuz tutishi koʻp tomonlama shu erda yashayotgan insonlarning, xususan yoshlarning cheksiz mehnati samarasiga bogʻliq.

Chunki davlatning jon tomiri shubhasiz yoshlardir. Lekin yana shu narsa maʼlumki, yoshlarning davlatni rivojlantirishida ularning keng tafakkur, aql-idrok, milliy maʼnaviyatining qay darajada shakllanganligi muhimdir.

Demakki, har qanday yosh avlod ham bu kabi sifatlarga ega boʻlavermaydi.

Bu esa koʻp jihatdan yoshlar hayotida sogʻlom turmush tarzining shakllangani bilan oʻlchanadi.

Shu sababli yoshlar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish masalasi bugungi kundagidek dolzarb masalani oʻrtaga tashlamoqda.

Bu masalani hal etishda yoshlarni dunyo hamjamiyatida yuz berayotgan har qanday oʻzgarishlardan vooqif etish, jahon uzra yoyilgan turli aqidaparastlik guruhlar, terrorism, ekstremizm kabi buzgʻunchi kuchlardan asrash, hamda ularga qarshi kurashuvchi milliy ong, milliy gʻurur va milliy maʼnaviyatni tarkibiga oluvchi mafkuraviy immunitetni ravnaq toptirishimiz ayni muddaodir.

Aynan ana shu tushunchalar bilan yoshlarni, ayniqsa, respublikamizning turli oliy oʻquv yurtlarida tahsil olayotgan talaba-yoshlarning ongini qurollantirishimiz maqsadga erishish yoʻllaridan birini belgilab beradi.

Bunday ezgu maqsad yoʻlidan ogʻishmay borishimizda bizga cheksiz vatanparvarlik ruhida yoʻgʻrilgan milliy gʻoya, milliy mafkura va milliy maʼnaviyatimiz ulkan yordam beradi.

Chunki har qanday millat u hoh oʻzbek, hoh rus, hoh yapon boʻlishidan qatʼi nazar taqdirini, kamolga etayotgan yoshlarning kelajagini ana shunday tushunchalarning qay darajada shakllanganligi belgilab beradi.

Milliy maʼnaviyat, milliy mafkura va milliy gʻoya ravnaqi bugungi kunda talaba-yoshlarga berilayotgan taʼlim-tarbiya ishlariga koʻp jihatdan bogʻliq ekanligi barchamizga yaxshi maʼlum.

Shunday ekan bu masalaga yaʼni taʼlimtarbiya ishlariga endilikda yanada chuqurroq yondashishimiz talab etiladi.

Chunki talaba-yoshlarda sogʻlom turmush tarzini shakllantirishning , ularning ongida milliy maʼnaviyatga nisbatan sogʻlom dunyoqarashni, eʼtiqodni rivojlantirishda bevosita ularga berilayotgan taʼlim-tarbiya sifatining qay darajada ravnaq topganligini oʻz vaqtida aniqlab, tegishli chora-tadbirlarni qoʻllay olishimiz lozim.

Bunday ishlarni amalga oshirishda ta'lim-tarbiya ishlarida «Mahalla-oliy o'quv yurti» tizimidan keng foydalanishi bizga ko'zlangan pirovard natijalarni beradi.

Aslini olganda, azaldan mahalla ta-lim-tarbiyaning beshigi bo'lib hisoblanib kelingan.

Aynan ana shu maskanda milliy g'urur va milliy iftixor, o'zlikni anglash, milliy g'oyalar yo'lida sobitqadamlik kabi ezgu tushunchalarning dastlabki kurtaklari unib chiqqan.

Demak talaba-yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda dastlabki faoliyatni mahalladan boshlab, so'ngra uni oliy o'quv yurtlarida davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Bunda esa «Mahalla va oliy o'quv yurtlari» hamkorlik tizimi maydonga keladi.

Ularning har ikkisi ham bir-birini taqozo etadi va to'ldiradi. Bu kabi ishlarni hal etishda esa biz quyidagi vazifalarni amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchi vazifa - talaba-yoshlarning sog'lig'ini mustahkamlash. Buning uchun esa mahallalarda hamda oliy o'quv yurtlarida tegishli sport zallari, maxsus sog'lomlashtirish maskanlari faoliyatini jonlantirishimiz va bu erga talaba-yoshlarning turli to'garaklarda jalb etilishini muttasil kuzatishimiz, kerak bo'lsa mahallada yashayotgan har bir talaba-yoshlarning qanday sport to'garaklarida ishtirok etayotganligini uzluksiz nazorat qilishimiz lozim.

Ikkinchi vazifa - talaba-yoshlarni dunyoda bo'layotgan o'zgarishlardan vooqif etib turuvchi ommaviy axborot vositalari (OAV), turli kulublar, internet aloqa vositalarining ishini jadallashtirishimiz; ularda asosan sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalariga oid maqola, ocherk, radio va teleeshittirishlar, kinodasturlar, multimediya o'yinlarini iloji boricha ko'proq yuzaga chiqarishimiz; ayniqsa, keyingi yillarda talaba-yoshlar o'rtasida keng yoyilgan turli xil uyali aloqa vositalariga qiziqish kun sayin ortib bormoqda.

Uchinchi vazifa - talaba-yoshlar bilan birgalikda mahalla va oliy o'quv yurtlari hamkorligida "Biz sog'lom turmush tarafdorimiz", "Mening mahallam- vatanparvarlar makoni", "Ilm dargohim-ziyo manzili" nomli ko'rik-tanlovlarni tez-tez o'tkazib turish ham maqsadga erishishning etakchi yo'llaridan biridir.

To'rtinchi vazifa - talaba-yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga ongli munosabatni tarbiyalash bo'lib, bu ularning gigiena qoidalariga rioya etishi, nosog'lom muhit haqida ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, kerakli joylarda o'zlarining ijodiy fikrlashlari, mustaqil g'oyaviy kuchni egallaganligi, milliy g'oyalarni qay yo'ldan borish, sobitqadamlik, nosog'lom muhitni qanday yo'qotish kabi tushunchalarni shakllantirishimiz lozim.

Shu vazifalarni amalga oshirishimiz barobarida biz yana quyidagi asosiy yo'nalish va omillarga e'tibor berishimiz lozim:

- har bir jamiyatning, tuzumning tarixiy rivojlanishida yoshlar muammosining mavjudligi, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalarining etakchiligi va bu masalaning asosiy qismining echimlari ta'lim-tarbiya jarayoniga bog'liq.

Xususan bu jarayonda "Mahalla va o'quv maskani" hamkorlik tizimi masalalari ustuvorlik qiladi;

- har bir davlat taraqqiyotining asosini shu erda yashayotgan yoshlarning talim-tarbiyasi tashkil etishi;
- sharq xalqlari tarixiy taraqqiyotida yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ularga sog'lom turmush tarzi shakllanishining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy masalalari sifatida qarab, katta e'tibor berib kelganligi va bu taraqqiyot sog'lom turmush tarzini shakllantirishning tarixiy metodologik asosini tashkil etishni inobatga olish;
- yoshlarning ta'lim-tarbiyasida sog'lom turmush tarzining shakllanishi pedagog-murabbiylar, ustozlar mehnati etakchi omillardan ekanligi;

- yoshlarda sogʻlom turmush tarzini shakllanishi oliy oʻquv yurtlarida mutaxassislar tayyorlashning oʻziga xos tomonlarining mavjudligi va bu sohadagi ishlarni keng rivojlantirish lozimligi.

Demak, talaba-yoshlarda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish jarayoni hamda uning mazmuni davlat talab va ehtiyojlari asosida vujudga kelib, davlatni taraqqiyot sari odimlashida ulkan ahamiyatni kasb etadi.

Talaba-yoshlar tafakkuriga, ularning ongiga, maʼnaviyatiga sogʻlom turmush tarzini olib kirishimiz, ularga salbiy taʼsir etuvchi har qanday yovuz gʻoyalarga taʼlim-tarbiya jarayonida talaba-yoshlarni ularga qarshi qurollantirishimiz, mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz shart.

Talaba-yoshlarni yurtga sadoqat, milliy-maʼnaviy tariximizga, qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashimiz lozim.

Ana shundagina talaba-yoshlarimiz oʻzligini anglab, milliy gʻurur va iftixor tuygʻularini ongiga singdirib, millat ravnaqiga samarali hissa qoʻsha oladigan fidoiy farzandlar boʻlib etishadi.

Metodologiya

Ushbu maqola “Mahalla va oliy oʻquv yurti” hamkorligida talaba-yoshlar orasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish jarayonini ilmiy-nazariy va amaliy asosda oʻrganishga qaratilgan. Tadqiqotda kuzatuv, tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Asosiy metod sifatida soha mutaxassislari, mahalla faollari hamda talaba-yoshlar bilan suhbatlar oʻtkazilib, mavjud muammolar hamda ularni hal etish yoʻllari aniqlab olindi. Shu bilan birga, sogʻlom turmush tarziga oid milliy hamda xorijiy tajribalar oʻrganilib, ularning samarali jihatlari maqolada tahlil qilindi.

Natija va muhokama

Tadqiqotlar shuni koʻrsatmoqdaki, sogʻlom turmush tarzini shakllantirishda mahalla hamda oliy oʻquv yurti oʻrtasidagi hamkorlik muhim omil hisoblanadi. Mahalla – milliy tarbiya va maʼnaviy qadriyatlar oʻchogʻi sifatida yoshlarga dastlabki hayotiy koʻnikmalarni singdirsa, oliy oʻquv yurtlari esa bu jarayonni ilmiy, nazariy va amaliy jihatdan mustahkamlab boradi. Talaba-yoshlar ishtirokidagi sogʻlomlashtiruvchi tadbirlar, sport toʻgaraklari, maʼnaviy-maʼrifiy uchrashuvlar, targʻibot ishlari va tanlovlar ularning ongida sogʻlom turmush tarziga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga xizmat qilmoqda. Mahalla va oliy taʼlim muassasalari oʻrtasidagi tizimli hamkorlik orqali nafaqat sogʻlom jismoniy holat, balki mafkuraviy immunitet, milliy gʻurur va vatanparvarlik tuygʻularini kuchaytirish mumkin. Shu sababdan bu ikki tuzilma oʻrtasidagi uzviy aloqa yanada mustahkamlanishi, faoliyatlari muvofiqlashtirilgan holda olib borilishi lozim. Tadqiqot natijalari ushbu tizim asosida olib borilgan ishlarning ijobiy samaralar berayotganini koʻrsatmoqda.

Xulosa

Yoshlar orasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirish – jamiyat barqarorligi hamda davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Ushbu jarayonda mahalla hamda oliy oʻquv yurti oʻrtasidagi hamkorlikni yoʻlga qoʻyish orqali taʼlim-tarbiya samaradorligini oshirish, talaba-yoshlarni maʼnaviy yetuk, jismonan sogʻlom, vatanparvar shaxslar etib tarbiyalashga erishish mumkin. Mahalla institutining tarbiyaviy imkoniyatlari oliy taʼlimdagi nazariy bilimlar bilan uygʻunlashganda, bu ikki tizim bir-birini toʻldirib, sogʻlom turmush tarziga asoslangan barkamol avlodni voyaga yetkazadi. Demak, bu yoʻnalishdagi ishlarni yanada tizimli, uzviy va zamonaviy yondashuv asosida tashkil etish dolzarb vazifalardan biri boʻlib qoladi.

ADABIYOTLAR

1. Abduraxmanov K.X. Oʻquvchi – yoshlarda sogʻlom turmush tarzini mujassamlantirish jihatlari. Uslubiy qoʻllanma. "Istiqlol nashriyoti". Toshkent. - 2012-88 b.
2. Milliy tarakkiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi boskichga koʻtaramiz. - Toshkent: Oʻzbekiston. 2017. 592 b.
3. Barkamol avlod orzusi. - Toshkent. Sharq. 1999.
4. Bu makaddas vatanda azizdir inson. - Toshkent. Gʻ.Gʻulom. 2010.